

TALABALARNING TARBIYAVIY MUNOSABATLARINI TASHKIL
ETISHGA YO‘NALTIRILGAN AMALIY-KASBIY TAYYORGARLIKNI
OSHIRISH

G.M.Adizova

TDPU o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Pedagogik jarayon, talaba ustoz munosabati, ta’lim-tarbiya, mustaqil ta’lim, xalqaro tajriba, kitobxonlik, ilmiy salohiyat, zamonaviy yondashuv,*

Annottasiya: *Talabalar o‘rtasidagi hamda o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida vujudga keluvchi bevosita ta’sir jarayonini inobatga olish zarur bo‘lib, bu bevosita ta’sir muloqot jarayonida yoki masofadan turib ham vujudga kelishi mumkinligi pedagogik jarayonlarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jarayonni samaradorligi nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, talabalarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv ta’limiy muhitni hamda o‘zaro ta’sir jarayonini tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi.*

Ключевые слова: *Педагогический процесс, взаимоотношения ученика и учителя, образование, самостоятельное образование, международный опыт, чтение, научный потенциал, современный подход.*

Аннотация: *Необходимо учитывать процесс непосредственного влияния, который происходит в процессе взаимодействия между учениками и между учителем и учениками, а также то, что это прямое влияние может происходить в процессе общения или на расстоянии. в педагогическом процессе имеет особое значение. Эффективность педагогического процесса зависит не только от организации образовательного процесса на научной основе, но и от установления самостоятельного образования, формирования у учащихся навыков самообразования, а также создания рефлексивной образовательной среды. и зависит от организации процесса взаимодействия.*

Key words: *Pedagogical process, student-teacher relationship, education, independent education, international experience, reading, scientific potential, modern approach,*

Annotatsion: *It is necessary to take into account the process of direct influence that occurs in the process of interaction between students and between the teacher and students, and the fact that this direct influence can*



occur in the process of communication or at a distance is important in pedagogical processes. is of special importance. The effectiveness of the pedagogical process depends not only on the organization of the educational process on a scientific basis, but also on the establishment of independent education, the formation of self-education skills in students, as well as the creation of a reflexive educational environment and depends on the organization of the interaction process.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro etakchi tajribalarni hisobga olgan holda talaba-yoshlarni kitobxonlikka oid bilimlarini shakllantirish va rivojlantirish sifatini oshirish, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini ko'tarish, ta'limda texnologiyalar, zamonaviy yondashuvdan foydalanish jarayonlari dunyo ta'limida munosib o'ringa ega ekanligini hisobga olib, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari tahlil eish va quyidagi muammolar: birinchidan, talaba-yoshlarni kitobxonlikka oid bidlimlarini shakllantirish usullari, vositalari va jarayonlarini to'liq tushunib etmasliklari, ikkinchidan, talaba-yoshlarni kitobxonlikka oid bilimlarini shakllantirishda pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi, pedagogik va kitobxonlikka doir bilimlar integratsiyasi, innovation yondashuv asosida auditoriya, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar hamda pedagogik amaliyot jarayonlarini tashkil etish texnologiyalari haqidagi tasavvurlarning etarli darajada emasligi, uchinchidan, esa, talaba-yoshlarni kitobxonlikka oid bidlimlarini mustaqil ma'lumot avlodlar tajribasini, fan-texnika yutuqlarini o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil o'rganishga qaratilgan harakatlar majmuining natijasi bo'lib, kitobxonlik insonning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Kitobxonlik talaba shaxsi rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratsa, mustaqil ta'lim esa ta'lim olishning asosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bizga ma'lumki, Konfutsiyning bundan 3500 yil oldin "eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib etaman", degan fikrlari hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yu.X.Xojib "Kimning odobi yaxshi, va axloqi to'g'ri bo'lsa, u kishi o'z maqsadiga etadi va baxt unga kulib boqadi, Zero, "Yaxshi axloq jamiyatning yaxshiliklarning zaminidir" va yana "Halol, haqqo'y, axloq-odobli kishi har qanday qimmatbaho narsadan qimmatlidir,"-deb bejiz ta'kidlamagan.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa degan edi, Arastu. Tarbiya ko'pgina sabablarga, o'quvchilarning individual-tipologik



tafovutlariga, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasiga, shaxsiy faolligiga bog'liq.

Qadimgi Sharq maqollaridan birida shunday deyilgan: “Agar o'zingni bir yilga ta'minlamoqchi bo'lsang - sholi ek, o'n yilga ta'minlamoqchi bo'lsang - daraxt ek, yuz yilga ta'minlamoqchi bo'lsang - odam tarbiyala”. Bu ta'riflarning barchasi shaxs tarbiyasining u yoki bu qirralarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgandir. Tarbiya jarayonining mohiyati tarbiyaga kompleks yondashishni talab etadi. Tarbiyani qurilishga qiyoslash mumkin. Kompleks yondashish ob'ektiv ravishda aqliy, g'oyaviy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, ma'naviy va hakozolarning birligini, tarbiya jarayonini tashkil etishning: individual, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borishini, usullari hamda vositalarini maqsaddan kelib chiqib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimni keltirishni va ularni amalda qo'llashni talab etadi.

Mustaqil ta'lim – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi.

Demak, pedagogik jarayonni samaradorligi nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, talabalarda o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv ta'limiy muhitni hamda o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, pedagogik jarayonlarni talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida olgan tushunchalari asosida samarali tashkil etish va mazkur jarayonda ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish asosida innovatsion faolligini ta'minlash, shuningdek, ularning refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida talabalarning mustaqil ishlashi va mustaqil o'rganishi uchun alohida topshiriqlar berish va unda ularning boshlang'ich tushunchalari darajasini hamda moyilligini o'rganish asosida berilayotgan topshiriqlarni bajarishga ularda qiziqishni shakllantirish kabi qator talablarni belgilaydi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda shaxslararo munosabatlarda pedagogik tafakkurni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olinishi zarur.

Ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishda, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ya'ni o'qituvchi hamda talabalar o'zaro ma'lum



bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb aytishimiz mumkin.

Tarbiyaviy munosabatlar insonlarning o'zaro tajriba almashinishi, tajribalarni o'zlashtirishi, qo'llashi, ular o'rtasidagi doimiy munosabat, ya'ni aloqalar tizimi bo'lib, inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiati-inson, inson-san'at-inson kabi tarbiyaviy munosabatlar shaklida vujudga keladi va mazkur jarayonda inson ikkinchi bir insonga bevosita o'zining xatti-harakatlari bilan yoki vositalar yordamida ta'sir o'tkazishi mumkin, bu jarayon ixtiyoriy ta'lim muassasalaridagi rahbarlar bilan xodimlar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oladi.

Tarbiyaviy jarayondagi o'zaro munosabatlar insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu pedagogik jarayon hisoblanadigan insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni mazkur jarayonda ishtirok etayotgan ma'lum bir insonning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san'at va tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi ikkinchi bir insonga va boshqa insonlarning faoliyatiga, ya'ni fikrlashi, tasavvuri va dunyoqarashining o'zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan tarbiyaviy munosabatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, “inson-inson” munosabatlari shaklida birinchi o'rinda talabaning o'z o'rtoqlari bilan “talaba-talaba”, o'qituvchining o'z talabalari bilan “o'qituvchi-talaba” munosabatlarini ko'rish mumkin, talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda va talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarda tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligini, ya'ni mazkur munosabatlarda pedagogik tafakkurning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bevosita ta'sir jarayoni mavjudligini ko'ramiz.

Demak, talabalar o'rtasidagi hamda o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida vujudga keluvchi bevosita ta'sir jarayonini inobatga olish zarur bo'lib, bu bevosita ta'sir muloqot jarayonida yoki masofadan turib ham vujudga kelishi mumkinligi pedagogik jarayonlarda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Masalan, inson-inson munosabatlarida bevosita ta'sir vujudga keluvchi muloqot jarayonini ko'rib chiqadigan bo'lsak, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni mavzusida tashkil etiladigan suhbat jarayonida ixtiyoriy ishtirokchining, ya'ni suhbat jarayonidagi o'qituvchi yoki talaba (o'z



fikrini bildirayotgan shaxs)ning pedagogik faoliyatning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati yo‘nalishidagi tushunchalari, kasbiy qiziqish, kasbiy faoliyat, kreativlik, kommunikativlik, kognitivlik, umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va ularni qadrlashi, Davlat ramzlariga bo‘lgan hurmati va e‘tibori uning samimiy va diqqat bilan so‘zlashi, o‘z fikrini to‘la va to‘g‘ri ifodalashi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yaratilayotgan yangiliklar, qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar haqida gapirayotganda mag‘rurlanib va ehtirolarga berilib so‘zlashi, uning yuzidagi tabassum, samimiylik va jo‘shqinlik, o‘z suhbatdoshiga qarab turishi va uni tinglay bilishi, suhbatdoshi uchun ham o‘z fikrlarini bildirishi va samimiy suhbatlashishi uchun imkon yaratishi mazkur jarayon ishtirokchilarida pedagogik kasbiga muhabbat, fidoiylik, Vatanga muhabbat, sadoqat va e‘tiqod, Konstitutsiya va qonunlarga, Davlat ramzlariga, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarga hurmat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlarga moyillik va islohotlarning natijalariga qiziqish, kelajakka ishonch shakllantirishga hamda ularda tinchlik, mustaqillik, erkinlik va bag‘rikenglikni qadrlash, tariximizni o‘rganish va tahlil qilish, yaratilayotgan yangiliklar va yutuqlardan mag‘rurlanish kabi his-tuyg‘ularni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Talabalar va o‘qituvchilar ma‘lum bir belgilangan munosabatda bo‘lsalarda, talabalar va o‘qituvchilarning o‘z funksional vazifalari bo‘lib, mazkur funksional vazifalarni, ya‘ni o‘qish va o‘qitish, o‘rgatish va o‘rganish kabi funksional vazifalarni amalga oshirish jarayonida doimiy jonli muloqotda bo‘lavermaydi. Shunga qaramasdan, barcha talabalar o‘rtasida hamda o‘qituvchilar bilan talabalar o‘rtasida, shuningdek, o‘qituvchilar o‘rtasida ham bevosita o‘zaro ta‘sir mavjudligi tarbiyaviy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Xulosa.

Bizning fikrimizcha, mazkur bevosita ta‘sir jarayoni masofadan turib, muloqotsiz tarbiyaviy jarayonda vujudga keladi. Masalan, talaba o‘z o‘qituvchisining eslaganda, uning ismini eshitganda yoki o‘qituvchi so‘zini eshitganda, shuningdek, unga o‘rnak bo‘layotgan yoki uni ranjitgan o‘qituvchini uzoqdan ko‘rganda, u haqida fikr yuritadi va mazkur jarayonda o‘qituvchining bilimi, dunyoqarashi, kiyinishi, jamoadagi mavqei, o‘zi kabi o‘qituvchilar o‘rtasidagi obro‘si, mustaqillikka, Vatanga, Davlat ramzlariga, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf odatlarga bo‘lgan munosabati hamda bularga ijobiy munosabatda bo‘lgan talabalarga bo‘lgan munosabatlari haqida talaba o‘ylaydi, bu o‘z navbatida talabaning dunyoqarashini o‘zgarishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Inson-inson munosabatlarini hamda inson-inson munosabatlari jarayonida,



hattoki muloqotsiz jarayonda ham o‘zaro ta’sir mavjudligini inobatga olish va mazkur jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etishga e’tiborni kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy. Hadis II qism. - T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. - 607 b.
2. Avesto // Tarixiy-adabiy yodgorlik: Asqad Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 400 b.
3. O. Musurmonova Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dok....diss. – T., 1993. – 364 b.

